

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ERKIN VOHIDOV IJODIGA BIR NAZAR

Z.Baltayeva

*QQDUNing o‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasи dotsenti*

Abstract. *The article looks at the poetics of our nation's favorite poet, Hero of Uzbekistan Erkin Vahidov. Our child is a witness that the realization of people's dreams and hopes is skillfully reflected in the work of the poet.*

Keywords. *Imagery, simile, poem and poetry, lyrical experience, folklore, tradition.*

Абстрактный. В статье рассматривается поэтика любимого поэта нашего народа, Героя Узбекистана Эркина Вахидова. Реализация мечтаний и надежд людей умело отражена в творчестве поэта.

Ключевые слова. Образность, сравнение, стихотворение и поэзия, лирический опыт, фольклор, традиция.

Istiqlol yillaridan boshlab, mamlakatimizda milliy tilimizga, shu bilan bir qatorda, so‘z san’ati – adabiyotga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Ijodkorlar mehnati, ko’rsatgan buyuk xizmatlari o‘z qadrini topmoqda. Umrining oxirigacha o‘z yurti, xalqi uchun yashagan, ijod qilgan betakror she’riyat sohibi, O’zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov ham ana shunday insonlardan biridir. O’zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov: “Hech ikkilanmay, komil ishonch bilan aytish mumkinki, Erin Vohidov o‘zbek she’riyati ko’rki va faxri. Bu fikrda zarracha mubolag’a yo’q”, - deya bejiz aytmagan edi. U o’zinig kamtarligi, samimiyl insonligi va benazir asarlari bilan xalq ko’nglidan o’rin olgan. Erkin Vohidov hamisha tinib-tinchimas, ijod qilishdan to’xtamas, jamoat bilan birga hamqadam edi va hech qachon yozganlaridan ko’ngli to’lmas edi. Quyidagi adib tarjimai holidan olingen fikrlar ham buning yorqin dalilidir: “Bunday qaraganda bitta shoirning qiladigan ishini qilib qo’ygandekman. Lekin hech qachon o‘z qilgan ishimdan ko’nglim to’lgan emas. Hamisha yozganimdan yozadiganim muhimroq va azizroq tuyuladi.... Odamlarga faqat she’ring emas, o’zing ham kerakligingni sezish – bu katta baxt... Shuning uchun ham jamoat mehnatidan o’zimni olib qochgan emasman... Mana bu ikki satr ham o’ylab topilgan emas, balki ko’nglimdan chiqqan so’zlar:

Odamlar siz mening hayotim,
Har biringiz umrim parchasi ”.

Yetti yoshdan yetmish yoshgacha, hamma sevib o’qiydigan va yoddan biladigan “Kamtarlik haqida” gi she’rining o’zi ham shoirning o’ziga xos, individual tarzda yondashganini ko’rsatadi:

Garchi shuncha mag’rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan manmanlik nechun,

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Kibru havo nimaga kerak.

Bu ijod mahsulida ajoyib tarzdagi o’xshatish qo’llanilganining guvohi bo’lamiz va shu asosida husni ta’llil (chiroyli dalillash) san’ati paydo bo’lganini ko’ramiz. Ya’ni shoir insoniy fazilat sanalmish kamtarlik va illat hisoblangan manmanlikni choynak va piyola misolida dalillab o’z mahoratini ko’rsatgan. Shu bilan bir qatorda odamlarni manmanlikdan voz kechib, kamtar bo’lishga undagan.

Shoir she’riyatida, bir narsani yoki voqeа-hodisani unga dahli bo’lmagan boshqa bir narsa yoki voqeа-hodisa bilan ifodalash va o’xshatish yaratish muhim o’rin tutadi. Buni yuqoridagi she’ri misolida ham ko’rdik. Quyidagi “Shoir qalbi” she’ridagi mana bu satrlarga ham e’tibor qarataylik:

Shoir qalbi go’yo anor,
She’ri uning sharbati.
Bo’lmas ekan she’r ahlining
O’z qalbiga shafqati.

Ushbu qatorlarda ijodkor shoir va she’r tushunchasini anor va uning sharbatiga qiyoslab, o’ziga xos tarzda o’xshatish yaratgan. She’rning davomida esa voqeа rivojlanib, o’z yechimini topadi:

Tinmay ezar, ezar uni
Ammo shoir biladi-
Piyolasi to’lgan kuni
Paymonasi to’ladi.

Erkin Vohidov she’r va shoirlik haqida ko’p va xo’p yozgan. “Shoir qalbi” she’rida ham bu mavzuga o’zgacha yondashgan.

Erkin Vohidov ijodi haqida fikr yuritganda, unda o’tmisht an’analari ufurib turganini alohida ta’kidlab o’tish joiz. Ya’ni shoirni, uning ijodini bilganingiz sari buyuk so’z mutafakkiriri, g’azal mulkining sultonи-Alisher Navoiy izlarining ko’ringanini guvohi bo’lasiz. Bu haqda Erkin Vohidovning o’zi ham: “Istadir sayr aylamoqni men g’azal bo’stonida, Kulmangiz ne bor senga deb, Mir Alisher yonida”, - deb ta’kidlab o’tgan.

Aytish joizki, shunday ijodkorlar bo’ladiki, ular vafot etsa ham, xalq qalbida, adabiyot olamida o’chmas iz qoldiradi. Erkin Vohidov ham ana shunday insonlardandir. Uning ijodi bilan yaqindan tanishib borar ekansiz, dunyoqarashingiz, fikrlash tarzingiz o’tkirlashib borayotganini his etasiz. Asarlarini o’qib xuddi o’zingizni yoki yaqinlaringizning dardini tuyganday bo’lasiz. Uning xalqona, samimi, sodda va betakror she’rlarida Vatan, yurt, istiqlol, milliylik, insoniylik aks etib turganday go’yo. U o’zining kamtarligi va ko’plagan insoniy fazilatlari bilan xalq xotirasida abadiy yashaydi.

**“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI
TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Adabiyot:

1. Erkin Vohidov. Kuy avjida uzilmasin tor. –T: “Sharq”. 1989. –B. 320
2. Doshanova, G. (2023). MAHMOUD TOIR FOURS TRADITIONS AND UPDATES. *Miasto Przyszłości*, 35, 244-246.
3. Farhodovna, T. L. (2020). THE ROLE OF FURKATS’CREATION IN THE EMERGENCE OF A NEW UZBEK POETRY. *Восточно-европейский научный журнал*, (3-4 (55)), 4-5.
4. Berdibayev, U. B. (2021). Tradition and originality in the context of Turkish literature (On the example of the creations of abdulla oripov and ibroyim yusupov). *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 266-270.